

LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ И РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

LINGUISTIC HERITAGE AND DEVELOPMENT OF LINGUISTICS



XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA

Andijon

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2023-yil, 15-may

Andijon

MUNDARIJA

TIL TADQIQIDA ZAMONAVIY YO‘NALISHLAR: KOGNITIV TILSHUNOSLIK, PRAGMALINGVISTIKA, LINGVOKULTUROLOGIYA, SOTSIOLINGVISTIKA, LINGVOPOETIKA, PSIXOLINGVISTIKA

САЙФУЛЛАЕВА Раъно Рауфовна

Замонавий ўзбек тилшунослигининг янги талаблари 3

LUTFULLAYEVA Durdona, NARXODJAYEVA Xurshida

Rasmiy akt turlari va ularning qo‘llanish o‘rinlari 7

ҲАКИМОВ Муҳаммадхон

Тилшуносликнинг қиёсий-тариҳий, систем-структур ва антропоцентрик илмий парадигмалари 12

ISKANDAROVA Sharifa, MIRZATILLAYEVA Sayyora

Fitrat asarlarida qo‘llanilgan arabcha o‘zlashmalar semantikasiga doir 15

BOBOKALONOVA Ramazon Rajabovich

Neyropsixolingvistika: shaxsiyatning rangin jilosi 19

САБИРОВА Мухлиса

Газета матнларида субъектив баҳонинг ифодаланиши 26

RAHIMOV Usmonjon Ergashevich

Presuppozitsiya va aktual bo‘linish 33

САГИДОЛДА Гульгайша, ЗҰЛПЫХАР Ақнұр

Ясауи «Хикметтерінің» тілі және лингворухани код мәселесі 42

НОСИРОВ Шерзодбек Исматуллаевич

Особенности медийных текстов и их разнообразие 50

SHIRINOVA Yekaterina Turakulovna

Axborot almashinuvining psixolingvistik jihatlari 55

SHODIYA Ganiyeva Azizovna

Frazeologik birliklar transformatsiyasi haqida 58

KOMILOVA Gulmira Temirovna

Mubolag‘aning poetik nutqda qo‘llanishi va uning o‘zbek tilshunosligida tadqiqi 60

MURATOVA Nafisa Baxtiyarovna

Diskurs jarayonida adresant va adresatning nolisoniy(paralingvistik) vositalardan foydalanishi 63

G‘ANIYEVA Dilafruz Xasanboy qizi

“Ta’lim” mikromaydonida “Baholash” semasini ifodalovchi lisoniy vositalar. 67

| | |
|---|-----|
| <i>O'NG'AROVA Komila Murot qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Ta'lim sifatini oshirishda videodarslarning ahamiyati..... | 341 |
| <i>AXADOVA Sevara Toxir qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Ot va sifat so'z turkumlarini o'qitish metodikasi..... | 344 |
| <i>TURG'UNPO LATOV Diyorbek, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Ta'lim jarayonini zamonaviy yondoshuv asosida tashkil etish..... | 347 |
| <i>AIMBETOVA Muqaddas Alisher qizi</i> | |
| Til o'rgatishda aborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning psixolingvistik jihatlari..... | 350 |
| <i>JALOLIDDINOVA Mushtariybonu Jamoliddin qizi</i> | |
| O'zbek tilida eponimizatsiyaga oid mulohazalar..... | 353 |
| <i>RAVSHANJONOVA Sitora Jahongir qizi</i> | |
| Ona tili darslarida pisa testlaridan foydalanish..... | 357 |

TATBIQIY TILSHUNOSLIK MASALALARI VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI

| | |
|--|-----|
| <i>MЎЙДИНОВ Қодиржон</i> | |
| Суд нотиқлиги ҳақида..... | 360 |
| <i>ИСМОИЛОВ Хурматилло Тўлқинжон ўғли</i> | |
| Суд мажлисида раислик қилувчи нутқининг расмий нутқ услуби доирасида чегараланиши..... | 362 |
| <i>ЭРГАШЕВ А.</i> | |
| Неотопонимлар хусусидаги мулоҳазали муаммолар..... | 365 |
| <i>ТЎРАХЎЖАЕВА Адибахон, Абдусатторова Фарангиз</i> | |
| Ўзбек орфографиясининг шаклланиш жараёнлари..... | 370 |
| <i>NO'MONOVA Yulduz Umarjon qizi</i> | |
| Davriy nashrlar tili xususida mulohazalar..... | 373 |
| <i>HASANOVA Sanobar Farxod qizi, MUXTAROVA Shaxnoza</i> | |
| Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qo'llanishi..... | 377 |
| <i>AXMEDOVA Aynurra Quanishbay qizi</i> | |
| Zamonaviy internet terminlari..... | 380 |
| <i>OZODOVA Barchinoy Jamol qizi, MURATOVA Nafisa</i> | |
| "Shajarayi turk" asarida etnik nomlarning qo'llanilishi..... | 383 |
| <i>ODAMBAYEVA Umida Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa</i> | |
| Til tarixida gumon olmoshining qo'llanilishi va taraqqiyoti..... | 385 |

QIYOSIY VA TARIXIY TILSHUNOSLIK

ECKEEVA Magruna Kайнарбаевна

Паремиологические параллели в казахском и узбекском языках..... 388

HAMIDOVA Kamola Mamirovna

Andijon polisonimi va uning variantlari xususida..... 395

ШУКУРОВА Зилола, Азизулло Орол

Ўрта осиёда баёз тузиш анъанасининг пайдо бўлиши..... 398

KABULJONOVA G.

O‘zbek va qirg‘iz tillarida qo‘llanuvchi mushtarak iboralar xususida..... 401

AXMADJONOVA Dilbaroy Alisher qizi

“Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanga ayrim arxaik leksemalarning leksik-
semantik xususiyatlari..... 404

KARIMOVA Charosxon Ibroximjon qizi

Munisning “Kerakmasmu sanga?” radifli g‘azalida qo‘llangan o‘zlashma
so‘zlar..... 406

MURODOVA Firuza Jalolovna

Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy vatanparvarlik nutqi..... 409

MADRAHIMOVA Zumrad Baxtiyor qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiyning turkiy til taraqqiyotidagi hissasi..... 411

ORTIQBOYEVA Shahrizoda Mamadiyor qizi, MURATOVA Nafisa

XIX-XX asrlar adabiy til xususiyatlari..... 414

RAJABBOYEVA Go ‘zal Arabboyevna, MURATOVA Nafisa

Abdurauf Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari..... 416

SA ’DULLAYEVA Aziza Qadamboy qizi, MURATOVA Nafisa

Alisher Navoiy asarlarida sinonimlarning qo‘llanilishi..... 419

ALTIBOYEV Yuldashev Ergash o ‘g ‘li

Mahmud Koshg‘ariy - turkiy til tadqiqotchisi va uning asari haqida..... 421

BAXRAMOVA Nodira Amandilloyevna

Vertikal harakat fe’llarining ma’no tuzilishi..... 425

SHEVASHUNOSLIK VA AREAL LINGVISTIKA

СОБИРОВ Абдулҳай Шукирович

Ўзбек халқ лаҳжалари ва шеваларини ўрганиш янги босқичда..... 428

DARVISHOV Ibrohim

Sheva, etnos va til munosabatlari..... 433

ЧИНИҚУЛОВ Н.

Leksikologiya. Ushbu davrga kelib leksikologiyada ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, ayrim so‘zlarning ma’nosi toraygan bo‘lsa, ayrim so‘zlar kengroq ma’noda qo’llaniladigan bo‘ldi: Vagon, samovar. Leksik qatlamdagi eng katta o‘zgarishlardan biri, chet tillaridan faol so‘z olish bo‘ldi. Tilimizdagи eskirgan so‘zlar o‘rnini, chetdan o‘zlashgan yangi so‘lar egalladi. Bu jarayon ijtimoiy hayot talabi natijasida yuzaga keldi. Masalan: poyezd, duma, politsiya, zavod.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, eski o‘zbek adabiy tilidan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘tish davrida tilimizda bir qator o‘zgarishlar yuzaga keldi. Bu o‘zgarishlarning asosi Muqimiyl, Furqat, Zavqiy asarlarida aks ettirildi. Shu sababdan ham ushbu asarlarni o‘rganish tilimizni turli taraqqiyot davlari bilan bog‘lagan holda qiyosiy tahlil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘.Tursunov, B. O‘rinboyev, A.Aliyev, O‘zbek adabiy tili tarixi, (1995)-Toshkent, O‘qituvchi.
- 2.<https://fayllar.org> sayti
3. G‘.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q. Mahmudov. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi, (2008), - Toshkent.

ABDURAUF FITRATNING TILSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

Rajabboyeva Go‘zal Arabboyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik davrining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning o‘zbek tilshunosligiga oid qarashlari haqida so‘z yuritiladi. Fitratning turkologiya taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi haqida ma’lumotlar beriladi. „Sarf” asaridagi fonetik va morfologik masalalar yoritiladi. **Kalit so‘zlar:** alifbo, fonema, tamoyil, “to‘ldirg‘ichlar”, morfologiya, lug‘at, tizim, xususiyat, darslik, grammatika.*

***Abstract:** This article talks about the views of Abdurauf Fitrat, one of the major representatives of the jadidism, on uzbek linguistic. Information is given about Fitrat’s contribution on the development of turkology. Phonetic and morphological issues in „Sarf” work will be covered*

***Абстрактный:** В данной статье рассказывается о взглядах Абдурауфа Фитрата, одного из крупных представителей джадидизма, на узбекское языкознание. Даны информация о вкладе Фитрата в развитие тюркологии. Будут освещены фонетические и морфологические вопросы в работе «Сарф»*

Fitrat XX asr o‘zbek madaniyati tarixidagi yorqin siymolardan biridir. Fitrat - uning adabiy taxallusi. Fitrat so‘zining lug‘aviy ma’nosi Navoiy asarlari lug‘atida «tabiat, tug‘ma tabiat, yaratilish” ma’nolari izohlangan. Fitrat tilshunos sifatida tilning barcha bo‘limlari haqida o‘z munosabatlarini bayon etadi. U o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, o‘zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o‘rnini belgilab berishga harakat qiladi.

Fitratning o‘zbek tilining turli masalalariga bag‘ishlangan asari “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba” deb nomlanadi. Bu asar o‘zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisini izchil ravishda berilgan birinchi grammatikadir. Fitratning fonetik qarashlari o‘zbek imlosiga bag‘ishlangan bir qator maqolalarida va «O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba- „Sarf” asarida ham o‘z aksini topgan. Unlilarni ikkiga bo‘lib: sof undan iborat bo‘lgan fonemalar unlilar, ovozga ega bo‘lmagan fonemalarni unsizlarga bo‘ladi. O‘zbek adabiy tilida 23 ta unsiz fonema mavjudligini ko‘rsatib, ulardan x, h, f fonemalari asl turkcha so‘zlarda kam uchrashini ta’kidlaydi. Fitrat o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors tilining ta’sirida bo‘lganini, shuning uchun ham umumturkiy fonetik xususiyatni ko‘proq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish kerakligini alohida ta’kidlaydi. Shu asosda unlilarni ikkiga yo‘g‘onlik va ingichkalik belgisi bilan belgilaydi. Yo‘g‘on (orqa qator) ingichka (oldi qator) a, o‘, u, i, e, o, y, i . Yo‘g‘onlik-ingichkalik belgisiga ko‘ra farqlanishga ega bo‘lmagan “e” unlisi ham mavjud ekanligi, jami 9 ta unli fonema borligini ko‘rsatadi. Fitrat “Sarf” asarida so‘z turkumlari haqida ma’lumot beradi. So‘z turkumlarini 4 ga bo‘ladi: ot, sifat, fe’l, ko‘makchi. Asarda olmosh, son haqida ham so‘z yuritadi, biroq ularni alohida so‘z turkumi sifatida ajratmaydi. Otlarni tub va yasama otlarga bo‘ladi. Yasama otlarni: o‘run oti, qurol oti, ish oti, kichiklagan ot, qo‘shma otlar kabi mayda bo‘laklarga bo‘lib, ularga alohida-alohida izoh beradi. Masalan, ish oti atamasi hozirgi tilshunoslikdagi funksional fe’l shakllaridan harakat nomiga to‘g‘ri keladi. Ular quyidagi qo‘shimchalar orqali yasalishini ko‘rsatadi: -moq, -ish, (bilish), -im, -uv, -nch (ishonch) kabi. Sifatni ham ikkiga bo‘ladi. Tub va yasama sifatlarga.-li, -siz, -gi, -ki, -g‘i, -imtil, -ma, -lik. Yasama sifatlar ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) nisbat sifati -g‘iy, -viy. 2) o‘rtoqlik sifati -dosh/dash 3) jins sifati kumush qoshiq, oltin uzuk. 4) o‘xshatish sifati kabi, o‘xshash, -dek/day, yanglig‘, singari. Sonlarni alohida so‘z turkumi sifatida bermaydi. Sifat tarkibida aytib o‘tadi. Yasama sonlar ma’nosi va yasovchi qo‘shimchalariga ko‘ra: sira son: -i(nchi), ulush son (-ar), (-tadan), chama son -(lab), sanalmishsiz son (-ov), o‘rtoqlik son (-ala), oshirma son (-larcha), o‘lchov sonlari (numerativ) qadaq, yutum kabi. Fitratning fikricha, “ot o‘rnida almashtirilib” qo‘llaniladigan so‘zlarga “ ot olmoshlari” yoki “olmosh” deyiladi. Olmoshlar uch turga bo‘linadi:

- 1) Ot olmoshlari - u, men, sen, ular, biz-bizlar, siz-sizlar.
- 2) Ko'rsatish olmoshlari – bu-bul, shu-shul, bular-bunlar, shular.
- 3) So'rash olmoshi – kim, nima, qanday, nega, nuchuk, nechun kabi.

Fe'l so'z turkumi ancha mukammal yozilgan. Fitrat fe'lning shaxs, son, bo'lishli-bo'lishsiz va zamon kategoriyalariga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi. Fitrat ko'makchi so'zlar haqida ham alohida to'xtaladi. Hozirgi tilshunoslikda yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar hamda modal, undov so'zlar tarkibida o'rganilayotgan lisoniy birliklarning hammasi ko'makchi so'zlar atamasi ostida beriladi. Fitratning sintaktik qarashlari uning «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. "Nahv" asarida o'z aksini topgan. Bu asar haqida muallif: "O'zbek nahvi to'g'risida mening bir tajribamdir" – deb yozadi. Hali o'zbek tili sintaksisining mundarjasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi izga solinmagan bir davrda mazkur asarning vujudga kelishi o'zbek tilshunosligi tarixi uchun katta voqeа edi. Muallif punktuatsion belgilarni «turush belgilar» atamasi bilan nomlaydi. Fitrat 12 ta tinish belgisi va ularning vazifalari haqida ma'lumot beradi. Gap bo'laklari haqida gap ketganda, Fitrat ega va kesimni bosh so'zlar tarkibiga kiritadi. Bosh so'zlardan boshqa barcha bo'laklarni "to'ldirg'ichlar" atamasi bilan nomlaydi. To'ldirg'ichlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) tushum, 2) borish, 3) chiqish, 4) o'run, 5) birgalik, 6) chog', 7) nechunlilik, 8) nechuklik to'ldiruvchilari. Asarda to'ldirg'ichlarning har bir haqida alohida-alohida to'xtalib o'tadi. Fitrat kirish so'z, kirish gap va kiritmalar haqida ham ma'lumot beradi. Fitrat ko'rsatib o'tgan sintaksis haqidagi fikrlar bugungi kunda ham mavjudligini darsliklarda ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili morfologiyasi va sintaksisining fan sifatida shakllanishida Fitratning xizmatlari katta.

Fitrat o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining tarixi hamda nazariyasiga oid bir qancha tadqiqotlar yaratdi. U "Adabiyot qoidalari" (1926), "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927), "Eng qadimgi turk adabiyoti" (1927), "O'zbek klassik adabiyotidan namunalar" (1928), "Aruz" (1936) kabi kitoblarining muallifi hamdir. Fitrat tilshunos sifatida o'zbek tilshunosligining shakllanishiga munosib hissa qo'shib "O'zbek tili to'g'risida bir tajriba: "Sarf", "Nahv", "Tojik tili grammatikasi" kabi darsliklar, "Adabiyot qoidalari", "Tilimiz" kabi asarlar va lug'atlar yaratgan. Abdurauf Fitrat o'zining darsliklarida grammatika atamasi ikki ma'noda ishlatilishini ta'kildaydi. Birinchidan, til qurilishinng tarkibiy qismi bo'lgan grammatik tuzilishini; ikkinchidan, shu grammatik qurilishga xos qonuniyatlarni o'rganadigan fanni bildirishini ko'rsatadi. O'zbek tilida tinish belgilarining miqdori va qo'llanish usuli, tinish belgilarining qo'llanish o'rniga, usuliga, tuzilishiga, vazifasiga ko'ra tasnifini berishga harakat qiladi.

Fitratning tilshunoslikka oid asarlari o‘zbek tilining taraqqiyotida katta o‘rin egallaydi. Fitratning fonetika, morfologiya va sintaksis to‘g‘risidagi fikrlari bugungi kun o‘quvchisi uchun katta ahamiyatlidir. Bunga qo‘sishimcha tarzda bugungi kun tilshunosligi rivojlanishida tayanch vazifasini ham o‘taydi.

Foydalananilgan adabiyotlar:

- 1.Faxri Kamol. Imlomiz takomili uchun. O‘zbekiston madaniyati, 1962, 8 – avgust.
- 2.Fitrat. Chin sevish. T., 1996.
- 3.Fitrat. Adabiyot qoidalari. T., 1993.
- 4.O‘rinboyev B. Tilshunoslik tarixi. Jizzax, 1994.
- 5.O‘rinboyev B., O‘rinboyeva D. O‘n uch qaldirg‘ochdan biri. Samarqand, 1995
- 6.Nurmonov A.O‘zbek tilshunosligi tarixi.T.,2002

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Sa’dullayeva Aziza Qadamboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotation: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ayrim asarlarida qo‘llanilgan sinonimlarning qadimgi, hozirgi turkiy tillarda va o‘z davrida qanday shaklda ekanligi, alohida leksik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. So‘zlarning izohi bugungi kun bilan taqqoslab qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Ma’nodosh so‘zlar, asarlar, leksik xususiyat, grammatika, tilshunoslik, she’r, uslub

Annotation: This article talks about the special lexical features of the synonyms used in some works of Alisher Navoi in ancient, modern Turkic languages and in his own time. The interpretation of the words is compared with today’s comparative analysis.

Аннотация: В данной статье говорится об особых лексических особенностях синонимов, используемых в некоторых произведениях Алишера Навои на древних, современных тюркских языках и в его время. Толкование слов сравнивается с сегодняшним сравнительным анализом.

Alisher Navoiyning bir qancha asarlarida, xususan, „Xamsat ul-mutahayyirin”, „Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va „Holoti Pahlavon Muhammad” qo‘llanilgan so‘zlarning leksik xususiyatlari, tarkibi turli xil hisoblanadi. Ularda so‘zlarning turli ma’nodoshlik shakllarida qo‘llanishi katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning ushbu asarlari sinonimlarning ko‘p qo‘llanilgani bilan ahamiyatlidir. Bu kabi asarlarni o‘rganish tilimizdagi sinonimlarni o‘rganish va tilimiz